

## OMONIMLARNI O‘QITISH METODIKASI

**Odinaxatova Nodira**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada omonimlarning tabiati, ularning turli kontekstlarda anglatadigan ma’nolari va o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida bu tushunchalarni o‘quvchilarga qanday yetkazish lozimligi muhokama qilinadi. Shuningdek, omonimlarni o‘rgatishning samarali metodlari tahlil etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *omonimlar, til, shakl, uslub, metod, ma’no.*

O‘zbek tili boy leksikaga ega bo‘lib, unda turli shakl va ma’nodagi so‘zlar til tizimining semantik qatlamini tashkil etadi. Tilshunoslikda muhim mavzulardan biri bo‘lgan omonimlar masalasi tilning ichki qonuniyatlarini chuqur tushunish, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish va ifoda imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur vositalardan biridir. Omonimlar — bir xil talaffuz va yozuvga ega, ammo har xil ma’nolarni anglatuvchi so‘zlar bo‘lib, ular o‘zbek tili uslubiyati va estetik ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga til birliklarining mazmuniy nozikliklarini tushuntirish, ularni fikrni aniq ifodalashga o‘rgatish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, omonimlar kabi ko‘p ma’noli va ko‘p funksiyali so‘zlar bilan ishlashda bu zarurat yaqqol seziladi. Masalan, “*yo‘z*” so‘zi *fasl* ma’nosida, *yo‘zmoq* fe’li ma’nolarida ishlatilishi mumkin. Bu esa o‘quvchilardan kontekstual fikrlashni, matnni chuqur tahlil qilishni va muayyan vaziyatga mos ma’noni talab qiladi.

O‘rta ta’lim muassasalarida ona tili darslarida omonimlar mavzusi odatda morfologiya yoki leksikologiya bo‘limlari doirasida o‘tiladi. Biroq bu mavzuni chuqurroq va faol metodlar asosida yoritish orqali o‘quvchilarda nafaqat tildagi mazmuniy farqlarni anglash, balki ijodiy fikrlash, tahliliy yondashuv va kontekstual tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Omonimlar quyidagicha hosil bo‘ladi:

Tarixda boshqa-boshqa hisoblangan so‘zlarning hozirgi alifboda bir xil yozilishi natijasida:

*üch uch(moq) (harakat)*

### **Omonimlarni o‘qitishda metodik yondashuvlar**

Omonimlarni muvaffaqiyatli o‘rgatish uchun an’anaviy yondashuv bilan zamonaviy metodik vositalarning uyg‘unligidan foydalanish maqsadga muvofiq. Quyida asosiy metodik yondashuvlar va ularning afzalliklari tahlil qilinadi:

**1. Kontekst asosida o‘rgatish:** o‘quvchilar omonim so‘zlarni matn ichida tahlil qilish orqali ularning har xil ma‘nolarini ajrata oladi. Masalan, o‘t (“olov”), o‘t (“maysa”) kabi.

10

Amaliyotda qo‘llanilishi:

- O‘quvchilarga bir nechta jumla yoki kichik matnlar beriladi.
- Har bir matnda omonim ishlatilgan bo‘ladi.
- O‘quvchi shu omonimni topishi va har bir kontekstdagi ma‘nosini izohlashi kerak.

**Misol:**

1. Men har kuni daftaringa yozaman.

2. Yoz fasli juda issiq keldi.

*Izoh: bu yerda “yoz” fe‘l va ot sifatida ishlatilgan.<sup>11</sup> Bu metodik yondashuv kontekstual tafakkur va matn tahlili ko‘nikmalarini shakllantiradi.*

**2. Ko‘rgazmali metod.** Ko‘rgazmali darslar o‘quvchilarning idrokini faollashtiradi. Rasm, video, multfilm, infografika orqali omonim so‘zlar ma‘no jihatidan aniq tushuntiriladi.

**Misol:** Omonim so‘z — **“tut”**

1-ma‘no: Fe‘l – qo‘l bilan ushlash

- Ko‘rgazma vositasi: Bola to‘pni tutayotgani aks etgan rasm.
- Tushuntirish: “To‘pni tut!”

2-ma‘no: Daraxt nomi

- Ko‘rgazma vositasi: Tut daraxti va mevasining suratlari.
- Tushuntirish: “Bog‘imizda katta tut bor.”

**Amaliy usullar:**

- Rasmi kartochkalar orqali har bir so‘zning ma‘nosi tushuntiriladi.
- Har bir rasimga tegishli so‘zlar bilan jumla tuziladi.
- O‘quvchilar o‘zlari ham omonimga oid rasm va misollar yaratadi.

Afzalligi: vizual xotirani faollashtiradi, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun ayniqsa samarali.

Omonimlarni samarali o‘qitish uchun kontekst asosida tahlil qilish, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, taqqoslash va turli o‘yinli metodlar kabi faol yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ona tili darslarida omonimlarni o‘qitish nafaqat tilshunoslik bilimlarini chuqurlashtiradi, balki o‘quvchilarning hayotiy muloqotdagi nutq samaradorligini ham oshiradi. Ularni tizimli, bosqichma-bosqich va turli metodik yondashuvlar asosida o‘rganish bugungi ta‘lim talablariga to‘liq javob beradi.

<sup>10</sup> Ibrohim Yo‘ldoshev, O‘lmas Sharipova “Tilshunoslik asoslari”. Toshkent “Iqtisod—Moliya” 2007. 91-bet

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Raxmatullayev Sh. Omonimlarning izohli lug‘ati. Toshkent -2007.
2. Ibrohim Yo‘ldoshev, O‘lmas Sharipova .“Tilshunoslik asoslari” Toshkent “Iqtisod—Moliya” 2007.
3. Ro‘ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi”. Toshkent – 2013

